



DAVLAT BOSHQARUVINI AMALGA OSHIRISHDA AQL MARKAZLARINING O'RNI

Mardanov Sardorbek Zafar o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
Ijtimoiy Fanlar fakulteti Siyosatshunoslik yo'nalishi
Siyosat – 22/A1 guruhi 4-kurs talabasi
O'zbekiston Respublikasi. Toshkent sh.
Email: davronovz73@gmail.com
Orcid ID: 0009-0001-5305-5860

Qorjovov Soxibjon Boymurod o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti
Ijtimoiy Fanlar fakulteti Siyosatshunoslik yo'nalishi
Iff-kun-siyosat-uz-2402 guruhi. 2-bosqich talabasi
O'zbekiston Respublikasi. Toshkent shahri.
Email: qorjovovsoxib@gmail.com
<https://doi.org/10.5281/zenodo.19651212>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 11-aprel 2026 yil
Ma'qullandi: 13-aprel 2026 yil
Nashr qilindi: 15-aprel 2026 yil

KEY WORDS

Davlat boshqaruvi, davlat siyosati, aql markazlari, siyosiy tizim, davlat hokimiyati, siyosiy jarayon, siyosiy institutlar, siyosiy strategiya va dasturlar.

ABSTRACT

Ushbu maqolada davlat boshqaruvining strategik qarorlar qabul qilish jarayonida "Aql markazlari"ning tutgan o'rne va ularning davlat siyosatini shakllantirishdagi transformatsiyasi tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida aql markazlarining vujudga kelish evolyutsiyasi, ularning institutsional rivojlanish bosqichlari hamda tarixiy va zamonaviy davrdagi samarali faoliyat modellari qiyosiy tahlil qilingan. Maqolada intellektual tahliliy markazlarning davlat strategik dasturlarini ishlab chiqishdagi roli xalqaro tajriba va empirik misollar asosida yoritib beriladi. Shuningdek, zamonaviy boshqaruv tizimida aql markazlarining samaradorligini oshirish mexanizmlari va ularning qaror qabul qiluvchi institutlar bilan o'zaro aloqa formatlari bayon etiladi.

Davlat boshqaruvining progression dinamikasida davlat siyosati va davlat boshqaruvi texnologiyalarining modernizatsion ko'lamini va zamonaviy trendlarini aniqlash, ularni tahlil qilish zamonaviy davlat boshqaruvi tadqiqotining dolzarb muammosi hisoblanadi¹. Mazkur muammoni hal etishda "Aql markazlari" o'zining pozitsion rolga egadir. Bu borada "Aql markazlari" tomonidan taqdim etilyotgan siyosiy texnologiyalar va dasturlar buning amaliy jarayonlardagi ifodasidir. Shuningdek, quyidagi definititsiyalarning mazmunini tahlil qilish lozim:

Davlat boshqaruvi – xususiyati nuqtai nazaridan o'rganilganda har qanday davlatda siyosiy hokimiyat kimga mansubligi, uning subyekti kim ekanligi, siyosiy hokimiyat eng avvalo,

¹ Mardanov S.Z. Davlat boshqaruvining progressiv dinamikasida davlat siyosati va boshqaruv texnologiyalari modernizatsiyasi qiyosiy tahlili // EJLFAS. 2025. №11. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/davlat-boshqaruvining-progressiv-dinamikasida-davlat-siyosati-va-boshqaruv-texnologiyalari-modernizatsiyasi-qiyosiy-tahlili> (дата обращения: 14.04.2026).

jamiyatning qaysi tabaqasi, guruhi, sinfining erkini ifodalab, manfaatini himoya qilishi, uning asosiy tarkibiy qismlari, ichki tuzilishi, davlat hokimiyatini amalga oshirishning asosiy uslublari, ya'ni muayyan davlatda siyosiy hokimiyat qanday tashkil etilgan? Qaysi hokimiyat organlari tomonidan davlat boshqaruvi amalga oshirilgan? Bu organlarning tashkil etilish tartibi va vakolatlari nimalardan iborat? – kabi savollarga asosli javob topishni taqozo etadi²gan jarayondir.

Aql markazi – siyosiy qaror qabul qilishda tahliliy xulosalar, ssenariy va amaliy takliflar orqali ta'sir ko'rsatuvchi mustaqil yoki yarim mustaqil tashkilotdir³.

“Aql markazlari” so'zining hozirgi ma'nosidagi shakli AQShda XX asr boshlarida paydo bo'lgan. Ushbu davr amerika fanida «Progressiv davr» sifatida ma'lum. Uning boshlanishi moliya va sanoat sohasidagi o'sib borayotgan siyosiy va iqtisodiy qudratga bo'lgan reaksiya bilan bog'liq bo'lib, bu holat Amerika boshqaruv tizimi asoslariga putur yetkazayotgan edi. Ushbu kontekstda Amerika Qo'shma Shtatlari siyosiy elitasi tomonidan davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish dolzarb masala ekanligi ko'rsatiladi. XIX asr o'rtalaridan boshlab siyosiy jarayonlar o'rganila boshlagan va siyosatshunoslik faniga asos solingan universitetlarga qo'shimcha ravishda, AQSH strategik boshqaruv maqsadlariga javob beradigan siyosatshunoslik fanini o'rganishning yangi shakllari yaratila boshlandi. Paydo bo'layotgan tashkilotlarni ikki toifaga bo'lish mumkin edi:

Birinchi toifada turli elita guruhlarining assotsiatsiyalari bo'lib, ular jamiyatning turli doiralari vakillari manfaatlarini Amerikaning rasmiy hukumat siyosati bilan muvofiqlashtirish bilan shug'ullangan.

Ikkinchi toifa — bu urushdan keyingi davrda «Aql markazlari» yoki «Fikrlash fabrikalari» nomini olgan tadqiqot markazlaridir.

AQSHda ushbu atama iqtisodiyot, siyosat, sanoat va texnologik rivojlanish strategiyalari, harbiy-siyosiy muammolar kabi sohalarda tadqiqotlar o'tkazishga jalb qilingan tashkilotlarni anglatadigan bo'ldi. Maqolaning dolzarbligi shundan iboratki, unda aql markazlarning zamonaviy siyosiy hayotda davlat bilan bo'lgan munosabati, uning strategiyalari va siyosatini belgilashdagi o'rni ko'rib chiqiladi⁴. Odatda, “Aql markazi” — bu ichki va tashqi siyosat sohasida “Buyurtmachi” va jamoatchilik vakillariga asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini beruvchi siyosatga yo'naltirilgan tadqiqotlar o'tkazadigan, tahliliy materiallar va tavsiyalar ishlab chiqadigan mustaqil notijorat tashkilotidir⁵. Aql markazlarini tatqiq etish mazkur tatqiqot ishining maqsadini belgilaydi.

Adabiyotlar tahlili.

Aql markazlari borasida ko'plab tatqiqotchi va olimlarning ilmiy ishlari mavjud. Armanistonlik tatqiqotchi V.K.Atoyanning “Integratsiya jarayonlarida aql markazlarining roli” nomli maqolasida Yevroosiyo iqtisodiy integratsiyasi va hamkorligida bu boradagi bir qator muhim strategik loyihalar va dasturlarni amalga oshirishda bunday tuzilmalarning roli kattadir. Maqolada bu hududda “Aql markazlari” ning sonining kamligi va moliyalashtirishdagi

² Mirzaaxmedov K. Davlat boshqaruvi / O'quv qo'llamma. Toshkent, “Zilol buloq” nashriyoti, 2025. – 8-9-b.

³ Mirzaaxmedov K. Amaliy siyosatshunoslik. / Ma'ruza matni. Toshkent, 2026. – 1-2-b.

⁴ Тельнега М. П. Эволюция «Мозговых центров» в рамках внешней политики США (XX В.) // ИСОМ. 2016. №4-1.

⁵ Баринаева Екатерина Александровна «Мозговые центры» в современной политической аналитике // Государственная служба. 2012. №2 (76). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/mozgovye-tsentry-v-sovremennoy-politicheskoy-analitike> (дата обращения: 11.04.2026).

kamchiliklar ham tahlil qilinadi⁶. Y.V.Shchetinskayaning "Fikr markazlari: tamoyillari, texnologiyalari va ishlash usullari" nomli maqolasida "Rand korporatsiyasi", "Brukings instituti", "Kato instituti", "Heriteyj instituti" kabi AQSh "Aql markazlari"ning faoliyat jarayonlari, yo'nalishlari, texnologiyalari va davlat siyosatida olib borayotgan siyosati tahlil qilinadi⁷. Rus tadqiqotchisi R.V.Romachevning "AQSh axborotni qayta ishlash tizimida aql markazlarining o'rni" nomli maqolasida xalqaro munosabatlarda konfliktli sharoitlarda axborot uzatish va uni tekshirish jarayonida aql markazlarining o'rni, ommaviy axborot kommunikatsiyalari, marketing, reklama, siyosiy PR, konsalting sohalarida hamda harbiy-razvedka ma'lumotlariga asoslangan axborotlarni qayta ishlash jarayonlarini keltirib o'tiladi⁸. Yana bir rus tadqiqotchilari S.Solodovnikov va S.Chernyshlarning "G'arb tahlil markazlari" nomli maqolasida 1950-yillarda dunyo siyosiy tartibotida boshlangan "Sovuq urush", 1962-yillarda "Aql markazlari" ning rivojlanish dinamikasi 1970-1980-yillardagi inson huquqlarini dunyo miqyosida tiklash va ijtimoiy-iqtisodiy soha modernizatsiyasida AQShning "Aql markazlari"ning pozitsiyasi bu borada 2000-yillarda amalga oshirilgan ijtimoiy siyosat va iqtisodiyotda global tarmoqning vujudga kelish sabablarini va natijalarini "Aql markazlari"ga bog'lagan holda bayon etadi⁹. G.Arutyunyanning "Aql markazlari va milliy xavfsizlik" maqolasida XXI asrda "Milliy xavfsizlik" tushunchasining dolzarblik nuqtai nazaridan bu borada "Aql markazlari" tomonidan taqdim etilayotgan strategik dasturlari va bashorat modellari ssenariylari dolzarb va muammoli masalalardan biri sifatida tahlil qiladi¹⁰. Rus tadqiqotchisi E.A.Barinovaning "Zamonaviy siyosiy tahlilda aql markazlari" nomli maqolasida Jahon siyosatida Buyuk Britaniya, AQSh, Yevropa va Sharq davlatlarining "Aql markazlari"ning demokratik va avtoritar jarayonlarning rivojlanish vektorlarini o'rganishda asosiy tuzilmalardan biri sifatida ko'rsatiladi¹¹. Amerikalik tadqiqotchi R.Viverning "Aql markazlarining o'zgaruvchan dunyosi" nomli maqolasida jahon siyosatida noaniqliklar va iqtisodiy depressiyalar kuzatilyotgan davrda "Aql markazlari" ga ortib borayotgan talablarning ko'pligi va bunda xususiy sektorning davlat siyosatiga ta'siri "Aql markazlari" orqali yoritib beriladi¹². Kanadalik olim D.E.Ebelsonning "Aql markazlari muhimmi? Davlat siyosatida siyosiy institutlarning ta'sirini baholash" nomli o'quv qo'llanmasida davlat siyosatini shakllantirishda

⁶ Атоян Вардан Корюнович РОЛЬ ФАБРИК МЫСЛИ В ИНТЕГРАЦИОННЫХ ПРОЦЕССАХ // Наука. Культура. Общество. 2021. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/rol-fabrik-mysli-v-integratsionnyh-protsessah> (дата обращения: 14.04.2026).

⁷ Я. В. Щетинская «Фабрики мысли»: принципы, технологии и методы работы // Социальные явления. 2012. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/fabriki-mysli-printsipy-tehnologii-i-metody-raboty> (дата обращения: 14.04.2026).

⁸ Ромачев Роман Владимирович РОЛЬ «ФАБРИК МЫСЛИ» В СИСТЕМЕ ИНФОРМАЦИОННОГО ПРОТИВОБОРСТВА США // Российский социально-гуманитарный журнал. 2023. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/rol-fabrik-mysli-v-sisteme-informatsionnogo-protivoborstva-ssha> (дата обращения: 14.04.2026).

⁹ Солодовников Сергей, Черныш Сергей Мозговые центры Запада // Россия и мусульманский мир. 2009. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/mozgovye-tseniry-zapada> (дата обращения: 14.04.2026).

¹⁰ Гагик Арутюнян «Мозговые центры» и национальная безопасность // 21-й век. 2011. №1 (17). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/mozgovye-tseniry-i-natsionalnaya-bezopasnost> (дата обращения: 14.04.2026).

¹¹ Barinova Ekaterina Aleksandrovna Zamonaviy siyosiy tahlilda "Fikr markazlari" // Davlat xizmati. 2012. № 2 (76). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/mozgovye-tseniry-v-sovremennoy-politicheskoy-analitike> (kirish sanasi: 14.04.2026).

¹² Weaver RK. The Changing World of Think Tanks. PS: Political Science & Politics. 22(3) 1989. P.563-578. doi:10.2307/419623. // <https://www.cambridge.org/core/journals/ps-political-science-and-politics/article/abs/changing-world-of-think-tanks/EF4EC3145FB27E04B70B9877D2F3C60B>

“Aql markazlari” tomonidan taqdim etilayotgan strategik siyosiy dasturlar va loyihalar tahlil qilinadi¹³. “Aql markazlari” borasida tatqiqot ishlari dialektik ravishda progression tabiatga egadir.

Tadqiqot usuli va metodologiyasi.

Mazkur maqolada kontent tahlil, tizimli tahlil, tarixiy tahlil, statistik tahlil va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan. Bu tahlil orqali “Aql markazlari” ning davlat siyosati va davlat boshqaruvidagi o‘rni ko‘rsatib o‘tiladi.

Aql markazlarining evolutsion bosqichlari. 1-jadval¹⁴.

Boshqich	Davr	Xususiyati
Ilk prototip	XIX-asr oxiri	Ideologiya va akademik usullar
Institutsionlashuv	1900-1945-yillar	Mustaqil tahlil markazlari tashkil topdi.
Strategik markazlar	1945-1990-yillar	Xavfsizlik va geosiyosiy muammolarga ustuvorlik bergan.
Globalashuv davri	1990-hozirgacha..	Mintaqaviy, iqtisodiy, siyosiy va ekologik markazlar soni ko‘paydi.

Aql markazlarining quyidagi funksilari mavjud bo‘lib, quyidagilarni tashkil etadi:

- a) Analitik funksiya – siyosiy vaziyatni ilmiy asosda tahlil qilish;
- b) Prognostik funksiya – ssenariy va risklarni baholash;
- c) Konsalting funksiya – buyurtmachilarga tavsiya berish;
- d) Kommunikatsion funksiya – jamoatchilikka ekspert fikrini yetkazish;
- e) Ta’limiy funksiya – seminar, siyosiy loyiha va treninglar o‘tkazish.

Aql markazlarining faoliyati ixtisoslanganligiga ko‘ra quyidagilarga bo‘linadi:

- I. Keng profillik (bir nechta sohani qamrab oluvchi);
- II. Sohaviy (faqat xavfsizlik yoki iqtisodiy soha bo‘yicha);
- III. Ideologik (muayyan siyosiy g‘oyani ilgari suruvchi).

Keng profillik aql markaziga misol tariqasida Koreya Taraqqiyot institutini (Korea Development Institute) ko‘rishimiz mumkin: Koreya taraqqiyot instituti 1971-yilda Koreyaning iqtisodiy siyosati masalalarini ham tizimli, ham amaliy jihatdan tadqiq qiluvchi hamda hukumatga “Besh yillik iqtisodiy rivojlanish rejalari” va unga bog‘liq siyosatni shakllantirishda ko‘maklashuvchi aql markaziga bo‘lgan ehtiyoj tufayli tashkil etilgan. KDI tadqiqotchilari nafaqat besh yillik rejalarni, balki uch yillik uzluksiz rejalari va yillik iqtisodiy boshqaruv rejalari ishlab chiqish va qo‘llab-quvvatlashda ham ishtirok etishdi. Shuningdek, ular joriy iqtisodiy siyosat masalalarini baholash uchun qisqa muddatli tadqiqot loyihalarini

¹³ Abelson D. E. Do think tanks matter?: Assessing the impact of public policy institutes. – McGill-Queen's Press-MQP, 2018. //

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=Think+tanks&btnG=#d=gs_cit&t=1776172100657&u=%2Fscholar%3Fq%3Dinfo%3A1iTa07TYQykJ%3Ascholar.google.com%2F%26output%3Dcite%26scirp%3D2%26hl%3Dru

¹⁴ Mirzaaxmedov K. Amaliy siyosathsunoslik. / Ma’ruza matni. Toshkent. 2026. 3-b.

amalg oshirdilar, muntazam ravishda siyosiy munozaralar va konferensiyalar o'tkazib turdilar. KDI Koreyaning uzoq muddatli iqtisodiy istiqbollari ham tahlil qildi va uning natijalarini 1977–91-yillar davomidagi “Uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish” hisobotida nashr etdi.

Iqtisodiy siyosatni shakllantirishga qo'shgan hissasidan tashqari, KDI Koreya iqtisodiyotini tadqiq qilish uchun poydevor yaratishga ham xizmat qildi. Garvard xalqaro taraqqiyot instituti (HIID) bilan hamkorlikda KDI Koreyaning 1946-yildagi ozodlikdan 1970-yillarning o'rtalarigacha bo'lgan 30 yillik ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini o'rgandi va natijalarni koreys hamda ingliz tillarida “Koreya Respublikasining iqtisodiy va ijtimoiy modernizatsiyasi” deb nomlangan o'n jildlik turkumda chop etdi. Ushbu keng qamrovli tadqiqot iqtisodchilar, siyosatchilar hamda mahalliy va xorijiy iqtisodiy tashkilotlar uchun qimmatli manba bo'lib xizmat qildi. KDI iqtisodiy rivojlanish bilan bevosita bog'liq bo'lgan makroiqtisodiyot, davlat moliyasi, pul-kredit va moliya iqtisodiyoti, sanoat tashkiloti va xalqaro savdo sohalarida keng ko'lamlı siyosiy yo'naltirilgan tadqiqotlarni doimiy ravishda amalga oshirib kelmoqda. Bundan tashqari, so'nggi vaqtlarda Koreyada katta e'tibor qozongan ijtimoiy ta'minot masalalari ham rivojlangan iqtisodiyotlar tajribasidan olingan qimmatli siyosiy saboqlarni o'rganish orqali tahlil qilindi. Tibbiy sug'urta, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalardan sug'urta qilish, pensiya va iste'fodagi jamg'arma mablag'lari, ishsizlik sug'urtasi kabi ijtimoiy ta'minot tizimlarida fundamental tadqiqotlar, shuningdek, daromadlar taqsimoti, jumladan, “Mutlaq kambag'allik” mavzulari bo'yicha tadqiqotlar va tajriba-sinov ishlari olib borildi. Rivojlangan mamlakatlarda qo'llaniladigan ijtimoiy ko'rsatkichlar tegishli ta'riflar va o'lchov usullarini o'rnatish orqali Koreyaga moslashtirildi. Bu “Iqtisodiy rejalashtirish kengashining so'rovnoma va statistika” bo'limi tomonidan “Koreya ijtimoiy indeksi”ning nashr etilishiga xizmat qildi¹⁵. Uning ko'p profilligi turli sohalarida tadqiqot olib borishida emas, balki davlatning strategik rivojlanishini barcha sohalarida – iqtisodiyotdan tortib ijtimoiy siyosatgacha qamrab olishidan namoyon bo'ladi. KDI iqtisodiyotning deyarli barcha klassik tarmoqlarini qamrab oladi. Ular makroiqtisodiy barqarorlikni tahlil qilish bilan birga, sanoat tashkiloti, xalqaro savdo, moliya va soliq-budjet siyosati kabi yo'nalishlarda hukumatning asosiy maslahatchisi hisoblanadi. Institutning “Besh yillik rejalar”dagi ishtiroki uning iqtisodiy qamrovi naqadar keng bo'lganini ko'rsatadi. KDI faqat raqamlar va YaIM o'sishi bilan cheklanib qolmaydi. Uning ko'p profilligining muhim belgisi — ijtimoiy sohani chuqur o'rganishidir.

Sug'urta tizimlari: Sog'liqni saqlash, ishsizlik va pensiya ta'minoti bo'yicha islohotlar modelini yaratish;

Kambag'allikni qisqartirish: Daromadlar taqsimoti va “Mutlaq kambag'allik” darajasini tahlil qilish;

Demografiya: Aholining demografiyasi va mehnat bozori o'zgarishlarini prognozlash.

Koreyaning “Iqtisodiy mo'jizasi”da inson kapitalining o'rni beqiyos. KDI ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, mehnat resurslarini qayta tayyorlash va innovatsion salohiyatni oshirish bo'yicha alohida tadqiqotlar o'tkazadi. KDIning tarkibiy qismi hisoblangan PIMAC (Public and Private Infrastructure Investment Management Center) markazi davlat investitsiya loyihalarini baholaydi. Bu institutning muhandislik, qurilish va investitsion loyihalar menejmenti kabi

¹⁵ KDI-korea development institute. // <https://www.kdi.re.kr/eng/>

texnik-iqtisodiy sohalarida ham ekspert ekanligidan dalolat beradi. Bu sanab o'tilgan faoliyat turlari "Korea Development Institute" ning keng profilligini tasqildaydi.

Natijalar.

"Aql markazlari" borasida ilmiy ahamiyatga molik natijalar mavjud. Jumladan, Pensilvaniya universiteti professori James Makgann tomonidan tayyorlangan "Public Policy Research Think Tanks" ma'lumotlarga ko'ra, dunyo bo'yicha 6 500 dan ortiq "Aql markazlari" faoliyat yurtishi aniqlandi. "Aql markazlari" bo'yicha AQSH dunyoda yetakchi pozitsiyaga ega¹⁶. Biroq rus tatqiqotchisi M.S.Ivchenko "Axborot jamiyatida Rossiya tahlil markazlarining faoliyati" nomli maqolasida mazkur ko'rsatkich yuqoridagi dasturning 2019-yildagi holatiga ko'ra, 8248 tani tashkil etishi belgilangan¹⁷. "Aql markazlari"ning global darajadagi faoliyatini tahlil qilish bo'yicha Pensilvaniya universiteti tomonidan tayyorlangan "Think Tanks and Civil societies program" dasturi doirasida "Global Go To Think Tank index" hisoboti shakllantiriladi. Bu indeksda sohalar bo'yicha "Aql markazlari" faoliyati tahlil qilinadi¹⁸.

AQSH "Aql markazlari" yo'nalish va buyurtmaning maqsadiga ko'ra: iqtisodiyot va siyosat, xalqaro munosabatlar va xavfsizlik, atrof-muhit, fan va texnologiya hamda san'at va gumanitar sohada faoliyat yurituvchi yo'nalishlarga bo'linadi. Bu "Aql markazlari" ning samarali va muammolarni yechimini taqdim etishdagi natijaviy imkoniyatlarini taqdim etadi¹⁹.

Brookings instituti – AQShning Vashington shahrida joylashgan 1916-yilda hukumatga xizmat qiluvchi tashkilot sifatida vujudga tashkil etilgan notijorat tashkilotdir. 1927-yilda Brookings institut 2 ta muassasa Iqtisodiyot institut (1922) va Robert Brookings tomonidan tashkil etilgan Brookings iqtisodiyot va boshqaruv maktabining birlashishi natijasida vujudga kelgan²⁰. Global iqtisodiyot va taraqqiyot, iqlim va energiya, ichki iqtisodiyot va mehnat, ta'lim, sog'liqni saqlash, iqlim va energiya, shahar va kommunikatsiya, jamiyat va madaniyat, xalqaro munosabatlar, mudofaa va xavfsizlik, AQSh davlat boshqaruvi sohalarini o'z ichiga oluvchi va shu sohalarida buyurtma qabul qiluvchi aql markazidir. Afrikada 9 ta hudud, Osiyo va Tinch okeanida 17 ta hudud, Yevropa va Yevroosiyoda 14 ta hudud, Lotin amerikasi va Karib havzasida 9 ta hudud, O'rta Sharq va Shimoliy Afrikada 15 ta hudud, Shimoliy Amerikada 5 ta hudud bo'yicha yuqorida qayd etilgan sohalar doirasida loyihalar va dasturlar olib bormoqda. 400 ta ekspert mazkur institutda turli lavozimlarda faoliyat yuritadi. Brookings institutining 5 yo'nalish bo'yicha dasturlari mavjud: boshqaruv tatqiqotlari 14 ta, iqtisodiyot tatqiqotlari 14 ta, tashqi siyosat 11ta hamda "Shahar metropolitan siyosati" bo'yicha 5 ta dasturiga ega. Prezidenti – Sesilia Yelena Rous (ma'lumotlar 2026-yil holatiga ko'ra.)²¹

Buyuk Britaniyada mustaqil "Aql markazlari" soni va faoliyati darajasiga ko'ra AQShdan keyingi o'rinlarda turuvchi davlat hisoblanadi. AQShda 1872 tani tashkil etib mavjud shtatlar bo'yicha: D.S. (Kolumbiya) – 408, Kaliforniya – 172, Nyu-York – 150, Virjiniya – 107, Illinoys – 64, Merilend – 50, Texas – 50, Konnektikut – 44, Pensilvaniya – 41, Nyu-Jersi – 36, Florida – 32,

¹⁶ Public Policy Research Think Tanks. // <https://guides.library.upenn.edu/publicpolicyresearchthinktanks>

¹⁷ Ивченкова Мария Сергеевна Функционирование российских «Фабрик мысли» в информационном обществе // Вестник Института социологии. 2019. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/funktsionirovanie-rossiyskih-fabrik-mysli-v-informatsionnom-obschestve> (дата обращения: 14.04.2026).

¹⁸ TTCSP Global Go To Think Tank Index Reports. // https://repository.upenn.edu/exhibits/orgunit/think_tanks

¹⁹ Wilczek K. Research guides: Think Tank search: U.S. Think tanks. https://guides.library.harvard.edu/hks/think_tank_search/US

²⁰ Brookings Institute. // <https://www.britannica.com/topic/Brookings-Institution>

²¹ Brookings Institute. // <https://www.brookings.edu/>

Kolorado – 31, Michigan – 31, Jorjia – 29, Ogayo – 26, Vashington – 24, Minnesota – 23, Shimoliy Karolina – 23, Viskonsin – 22, Arizona – 21, Indiana – 21, Meyn – 21, Rod-Aylend – 20, Tennessi – 20, Missuri – 19, Massachusetts – 17, Alabama – 17, Kanzas – 17, Oregon – 17, Nyu-Xempshir – 13, Gavayi – 12, Kentukki – 12, Luiziana – 12, Oklaxoma – 11, Ayova – 10, Missisipi – 10, Montana – 9, Arkanzas – 8, Yuta – 8, Nebraska – 7, Nyu-Meksiko – 7, G'arbiy Virjiniya – 7, Janubiy Karolina – 6, Janubiy Dakota – 5, Vermont – 5, Aydaho – 4, Nevada – 4, Shimoliy Dakota – 4, Delaver – 3, Alyaska – 2 hisoblanadi. (2025-yil holatiga ko'ra)²². Buyuk Britaniyada esa, 2017-yil 126 ta "Aql markazlari" mavjud²³. 2022-yilda 156 tani tashkil etadi. Shundan, Londonda 121 ta, Oksfordda 6 ta Kembridj shahrida 5 ta "Aql markazlari" faoliyat yuritishi aniqlanib, 73.50% notijorat, 11.25% universitet huzurida, 9.93% biznes sektorlari, 1.98% hukumat va 0.66% boshqa tuzilmalar qoshida tashkil etilgan. Ularning moliyaviy asoslarini 40.4% jamg'armalar, 39.73% xususiy sektor, 37.08% maxsus buyurtmachilar tomonidan amalga oshiriladi. Buyuk Britaniyadagi "Aql markazlari" asosan, 1990-2009-yillar oralig'ida progressiv o'sishni qayd etgan²⁴.

Davlat siyosati tatqiqotlar instituti (Institute for Public Policy Research. IPPR) – 1988 -yil lord Xollik va lord Itvell tomonidan tashkil etilgan mustaqil tashkilot. Uning Buyuk Britaniyaning 3 ta viloyatida ofislari mavjud. 1992-yilda "Ijtimoiy adolat" bo'yicha nufuzli hisobotini e'lon qilgan. 2020-yildan tashkilot direktori – Karis Roberts hisoblanadi. Har chorakda chop etiladigan IPPR Progressiv Revyu jurnali uning faoliyati haqida ma'lumotlarni taqdim etadi (ma'lumotlar 2020-yil holatiga ko'ra.)²⁵. Mazkur "Aql markazi" asosan ijtimoiy siyosatda sifatli davlat xizmatlari, demokratiya, mehnat tizimi hamda iqtisodiy barqarorlik bo'yicha progressiv loyiha va hisobotlarni taqdim etadigan tashkilotdir²⁶. Hozirgi kunda 200 dan ortiq ekanligi ayrim manbalarda keltiriladi.

O'zbekiston Respublikasida ham "Aql markazlari" mavjud bo'lib, ularning nomi va faoliyat sohasi quyidagilarni tashkil etadi:

O'zbekistonda ro'yxatdan o'tkazilgan "Aql markazlari" (2023-yil holatiga ko'ra). 2-jadval²⁷.		
No	Aql markazi nomi	Faoliyat sohasi
1	Barqaror rivojlanish markazi	Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va taraqqiyot dasturlari.
2	"Bilim karvoni" nodavlat notijorat ilmiy muassasasi	Ijtimoiy rivojlanish va siyosat.
3	Demokratik jarayonlarni tahlil qilish markazi	Fuqarolik jamiyati va iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish.
4	"Ijtimoiy fikr" respublika jamoatchilik fikrini o'rganish markazi	Jamoatchilik fikrini o'rganish va ijtimoiy rivojlanish.

²² Public Policy Research Think Tanks: Top Think Tanks – US. // <https://guides.library.upenn.edu/c.php?g=1035991&p=7509974>

²³ Complete List of UK Think Tanks. // <https://eddiecopeland.me/list-uk-think-tanks/>

²⁴ Think tank landscape scan 2022: UK. // <https://onthinktanks.org/articles/think-tank-landscape-scan-2022-uk/>

²⁵ Institute for Public Policy Research. // <https://onthinktanks.org/think-tank/institute-for-public-policy-research-2/>

²⁶ IPPR. // <https://www.ippr.org/who-we-are>

²⁷ O'zbekistondagi TOP-20 "aql markazlar". // https://yumh.uz/uz/news_detail/615

5	Iqtisodiy rivojlanishga ko'maklashish markazi	Iqtisodiy islohatlar va moliya.
6	Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi	Iqtisodiyot va strategik rivojlanish.
7	Qonunchilik muammolari va parlament tadqiqotlari instituti	Qonunchilik va huquq.
8	Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti	Qonunchilik va siyosat.
9	Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti	Makroiqtisodiyot va moliya.
10	Markaziy Osiyo xalqaro instituti	Tashqi-ichki siyosat va mintaqaviy xavfsizlik.
11	"Ma'no" tadqiqot tashabbuslari markazi	Iqtisodiyot va huquq.
12	"Oila va xotin-qizlar" ilmiy tadqiqot instituti	Ijtimoiy rivojlanish va gender tengligi.
13	Ommaviy kommunikatsiyalar masalalari bo'yicha markaz	Davlat organlarining shaffofligi va OAV.
14	O'zbekistonda ochiqlik va shaffoflik tahlil markazi ("Transparency Uzbekistan")	Korrupsiyaviy tadqiqotlar va davlat organlarining shaffofligi.
15	Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti	Mintaqaviy xavfsizlik va global rivojlanish.
16	Strategik tahlil va istiqbolni belgilash oliy maktabi	Milliy va mintaqaviy xavfsizlik va davlat boshqaruvi.
17	"Taraqqiyot strategiyasi" markazi	Davlat dasturlari monitoringi va strategik rejalshtirish.
18	Huquqiy muammolarni o'rganish markazi	Qonunchilik muammolari va sud-huquq.
19	Huquqni muhofaza qilish akademiyasi	Sud-huquq va qonun ustuvorligi.
20	"Yuksalish" umummilliy harakati	Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va taraqqiyot dasturlari.

Muhokama.

N.A.Medushevskiyning "Siyosiy jarayonlarda tahlil markazlari: "Aql markazlari" amerika modeli va uning AQSH tashqi siyosatida ishlash mexanizmlari" nomli maqolasida "Aql markazlari" ning siyosiy jarayonlarda tutgan pozitsiyasi va uning 1945-yildan so'ng rivojlanish evolyutsiyasi va bunda AQSHning "Rand korporatsiyasi", "Brukings instuti" va Yevropa davlatlari, Xitoy va Yaponiya davlatlarining "Aql markazlari" bilan qiyosiy tahlilini taqdim etadi. Bunga ko'ra, AQSH davlat boshqaruvida mazkur "Aql markazlari" qaror qabul qilish va muayyan strategik jarayonlar tahlilida asosiy pozitsiyaga ega bo'lsa, Yevropada "Aql

markazlari” asosan, ijtimoiy sohada strategik loyiha va dasturlar bilan ishlab chiqish bilan shug’illanishi ta’kidlanadi. Osiyo davlatlarida jumladan, Xitoy va Yaponiyada “Aql markazlari” davlat nazoratida va davlatning maxsus buyurtmasi asosida faoliyat olib boradi va unda tashqi siyosiy missiyalar va strategik jarayonlar ko’rsatib o’tiladi. Bu esa, ushbu ilmiy tatqiqotda “Aql markazlari” ning uch modeli: AQSH, Yevropa va Osiyo modellari hisoblanadi²⁸. G.B.Kochetkov va V.B.Supyaninlarning “AQSh tahlil markazlari: amaliy siyosatshunoslikning vositasi sifatida” nomli maqolasida esa “AQSh aql markazlari” modeli 1940-yillardan keying dinamikasini Amerika Ijtimoiy fanlar assotsiatsiyasi (1865), Amerika iqtisodchilar assotsiatsiyasi, Amerika siyosatshunoslar assotsiatsiyasi (1903), Amerika sotsiologlar assotsiatsiyasidagi (1905) “Aql markazlari” ning AQSh davlat siyosatida amalga oshirgan loyihalari tarixiy tahlil asosida yoritilgan bo’lib, xalqaro tinchlik uchun Kornegi jamg’armasi, Rassel Serj jamg’armasi, Rokfeller jamg’armalariining moliyalashtirishdagi roli tahlil qilinadi²⁹. “Aql markazlari” siyosiy g’oyalar inkubatori va siyosiy jarayonlarda strategik rejalashtirishning divigateli hisoblanadi. Bu birinchidan inkubator sifatida davlat siyosatidagi sohalar bo’yicha tegishli axborotlarni jamlaydi va shu axborotlar asosida tegishli ssenariylarni ishlab chiqadi hamda bu bo’yicha muhim strategik bashoratlarni amalga oshiradi. Ikkinchidan, siyosiy dvigatel sifatida mazkur “Aql markazlari” turli sharoitlarda siyosiy aktorlarning pozitsiyasini qanday amalga oshirishi mumkinlig va bundan kutilgan natijalar bo’yicha amaliy mexanizmlarni taqdim etadi³⁰. “Aql markazlari” siyosatshunoslik va davlat boshqaruvida asosiy kategorial fenomen va definitsiya hisoblanadi. Bu borada muhokama obyektlari ham faoliyat yo’nalishiga ko’ra farq qiladi.

Xulosa.

Demak, siyosiy jarayonlar va siyosat subyektlarining siyosiy hokimiyatdagi legitimligini saqlash, yuzaga kelishi mumkin muammolarni hal etish va oqilona qaror qabul qilishda “Aql markazlari”ning o’rni pozitsiyaviy xususiyatga ega hisoblanadi. Davlat boshqaruvida “Aql markazlari”ning samarali faoliyatini tashkil etish va ularning ulushini xususiy sektorga “Autsorsing” va “Kontrakting-aut” boshqaruv usullari orqali taqdim etish davlat siyosatida qaror qabul qilish jarayonida mazkur tuzilmalarning mustaqil va aniq maqsadga yo’naltirilgan tashqi siyosiy bosimlardan holi bo’lgan imkoniyatlarini shakllantiradi. Zamonaviy “Axborot jamiyatida” “Aql markazlari” asosiy institutsional tashkilot bo’lib xizmat qiladi. Davlat strategiyalarini shakllantrish, qonunchilik bazasini takomillashtirish, hududiy va mintaqaviy integratsiyaviy jarayonlarni amalga oshirish, milliy xavfsizlik siyosatini ishlab chiqish, konfliktli va inqirozli vaziyatlarning sodir bo’lish ehtimolini erta aniqlash va baholash, ijtimoiy sohada boshqaruv infratuzilmalarining natijaga va harakatga yo’naltirilgan mexanizmlarini ta’minlashda “Aql markazlari” asosiy vositachi hisoblanadi. Davlat boshqaruvida “Aql markazlari” multifunksional va polideferensial xususiyatlarga ega bo’lganligi bois, sohaviy nuqtai nazardan aniq maqsadlar uchun xizmat qilishini ta’minlash maqsadida ularning sonini

²⁸ Медушевский Н. А. Аналитические центры в политическом процессе: американская модель «Фабрик мысли» и ее функционирование за пределами США // Политика. 2010. №1 (56). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/analiticheskie-tsentry-v-politicheskom-protseesse-amerikanskaya-model-fabrik-mysli-i-ee-funksionirovanie-za-predelami-ssha> (дата обращения: 13.04.2026).

²⁹ Кочетков Геннадий Борисович, Супян Виктор Борисович «Мозговые центры» в США: Наука как инструмент реальной политики // Проблемы прогнозирования. 2010. №5. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/mozgovye-tsentry-v-ssha-nauka-kak-instrument-realnoy-politiki> (дата обращения: 13.04.2026).

³⁰ The Role of Think Tanks. // <https://www.cipe.org/reports/how-to-guide-for-economic-think-tanks/the-role-of-think-tanks/>

ko'paytirish davlat siyosatining zaruriy asoslaridan birini tashkil etadi. "Aql markazlari" o'zining pozitsiyaviy holatiga ko'ra:

Birinchiidan, davlat boshqaruvida modernizatsion va transformation jarayonlarda strategik rejalashtirishda ko'makchi tuzilmalardan biri;

Ikkinchiidan, ularning faoliyati mustaqilligi davlat boshqaruvining jamiyat o'rtasidagi muvozanati va legitimligini oshiradi;

Uchinchiidan, davlat siyosatidagi siyosiy jarayonlarda mobilizatsion dinamik harakatni ta'minlashda muhim siyosiy tizim elementi sifatida xususiyatiga ega..

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mardanov S.Z. Davlat boshqaruvining progressiv dinamikasida davlat siyosati va boshqaruv texnologiyalari modernizatsiyasi qiyosiy tahlili // EJLFAS. 2025. №11. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/davlat-boshqaruvining-progressiv-dinamikasida-davlat-siyosati-va-boshqaruv-texnologiyalari-modernizatsiyasi-qiyosiy-tahlili> (дата обращения: 14.04.2026).
2. Mirzaaxmedov K. Davlat boshqaruvi / O'quv qo'llamma. Toshkent, "Zilol buloq" nashriyoti, 2025. – 8-9-b.
3. Mirzaaxmedov K. Amaliy siyosatshunoslik. / Ma'ruza matni. Toshkent, 2026. – 1-2-b.
4. Теленьга М. П. Эволюция «Мозговых центров» в рамках внешней политики США (XX В.) // ИСОМ. 2016. №4-1.
5. Баринава Екатерина Александровна «Мозговые центры» в современной политической аналитике // Государственная служба. 2012. №2 (76). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/mozgovye-tsentry-v-sovremennoy-politicheskoy-analitike> (дата обращения: 11.04.2026).
6. Атоян Вардан Корюнович РОЛЬ ФАБРИК МЫСЛИ В ИНТЕГРАЦИОННЫХ ПРОЦЕССАХ // Наука. Культура. Общество. 2021. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/rol-fabrik-mysli-v-integratsionnyh-protsessah> (дата обращения: 14.04.2026).
7. Я. В. Щетинская «Фабрики мысли»: принципы, технологии и методы работы // Социальные явления. 2012. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/fabriki-mysli-printsipy-tehnologii-i-metody-raboty> (дата обращения: 14.04.2026).
8. Ромачев Роман Владимирович РОЛЬ «ФАБРИК МЫСЛИ» В СИСТЕМЕ ИНФОРМАЦИОННОГО ПРОТИВОБОРСТВА США // Российский социально-гуманитарный журнал. 2023. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/rol-fabrik-mysli-v-sisteme-informatsionnogo-protivoborstva-ssha> (дата обращения: 14.04.2026).
9. Солодовников Сергей, Черныш Сергей Мозговые центры Запада // Россия и мусульманский мир. 2009. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/mozgovye-tsentry-zarada> (дата обращения: 14.04.2026).
10. Гагик Арутюнян «Мозговые центры» и национальная безопасность // 21-й век. 2011. №1 (17). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/mozgovye-tsentry-i-natsionalnaya-bezopasnost> (дата обращения: 14.04.2026).
11. Barinova Ekaterina Aleksandrovna Zamonaviy siyosiy tahlilda "Fikr markazlari" // Davlat xizmati. 2012. № 2 (76). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/mozgovye-tsentry-v-sovremennoy-politicheskoy-analitike> (kirish sanasi: 14.04.2026).
12. Weaver RK. The Changing World of Think Tanks. PS: Political Science & Politics. 22(3) 1989. P.563-578. doi:10.2307/419623. // [https://www.cambridge.org/core/journals/ps-political-](https://www.cambridge.org/core/journals/ps-political)

- science-and-politics/article/abs/changing-world-of-think-tanks/EF4EC3145FB27E04B70B9877D2F3C60B
13. Abelson D. E. Do think tanks matter?: Assessing the impact of public policy institutes. – McGill-Queen's Press-MQUP, 2018. // https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=Think+tanks&btnG=#d=gs_cit&t=1776172100657&u=%2Fscholar%3Fq%3Dinfo%3A1iTa07TYQyk%3Ascholar.google.com%2F%26output%3Dcite%26scirp%3D2%26hl%3Dru
14. Mirzaaxmedov K. Amaliy siyosathsunoslik. / Ma'ruza matni. Toshkent. 2026. 3-b.
15. KDI-korea development institute. // <https://www.kdi.re.kr/eng/>
16. Public Policy Research Think Tanks. // <https://guides.library.upenn.edu/publicpolicyresearchthinktanks>
17. Ивченкова Мария Сергеевна Функционирование российских «Фабрик мысли» в информационном обществе // Вестник Института социологии. 2019. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/funktsionirovanie-rossiyskih-fabrik-mysli-v-informatsionnom-obschestve> (дата обращения: 14.04.2026).
18. TTCSP Global Go To Think Tank Index Reports. // https://repository.upenn.edu/exhibits/orgunit/think_tanks
19. Wilczek K. Research guides: Think Tank search: U.S. Think tanks. https://guides.library.harvard.edu/hks/think_tank_search/US
20. Brookings Institute. // <https://www.britannica.com/topic/Brookings-Institution>
21. Brookings Institute. // <https://www.brookings.edu/>
22. Public Policy Research Think Tanks: Top Think Tanks – US. // <https://guides.library.upenn.edu/c.php?g=1035991&p=7509974>
23. Complete List of UK Think Tanks. // <https://eddiecopeland.me/list-uk-think-tanks/>
24. Think tank landscape scan 2022: UK. // <https://onthinktanks.org/articles/think-tank-landscape-scan-2022-uk/>
25. Intitute for Public Policy Research. // <https://onthinktanks.org/think-tank/institute-for-public-policy-research-2/>
26. IPPR. // <https://www.ippr.org/who-we-are>
27. O'zbekistondagi TOP-20 "aql markazlar". // https://yumh.uz/uz/news_detail/615
28. Медушевский Н. А. Аналитические центры в политическом процессе: американская модель «Фабрик мысли» и ее функционирование за пределами США // Политика. 2010. №1 (56). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/analiticheskie-tsentry-v-politicheskom-protssesse-amerikanskaya-model-fabrik-mysli-i-ee-funktsionirovanie-za-predelami-ssha> (дата обращения: 13.04.2026).
29. Кочетков Геннадий Борисович, Супян Виктор Борисович «Мозговые центры» в США: Наука как инструмент реальной политики // Проблемы прогнозирования. 2010. №5. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/mozgovye-tsentry-v-ssha-nauka-kak-instrument-realnoy-politiki> (дата обращения: 13.04.2026).
30. The Role of Think Tanks. // <https://www.cipe.org/reports/how-to-guide-for-economic-think-tanks/the-role-of-think-tanks/>